

## SHAXS IQTIDORI VA QOBILIYATLAR DIAGNOSTIKASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7848117>

**Kurbanova Shaxnoza Nimadovna**

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali katta o'qituvchisi*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada sportchilarning ruhiy faoliyatning umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda qiziqishi, qobiliyati, kabi shaxsiy individual xususiyatlari tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan hislatlari, fazilatlari yotadi, har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyati bo'yicha bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. ular o'rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

### **Аннотация.**

В данной статье с общей характеристикой психической деятельности описываются личностно-индивидуальные особенности спортсменов, такие как интерес, способности, в основе которых лежат отличающиеся от другого человека чувства и качества каждого человека. ожидать от каждого человека одного и того же результата и одного и того же качества, потому что люди отличаются друг от друга, они отличаются друг от друга в определенной степени своими способностями.

### **Annotation.**

In this article, along with the general characteristics of mental activity, personal individual characteristics of athletes are described, such as interest, ability, and the basis of which are the feelings and qualities of each person that differ from another person. It is impossible to expect the same result and the same quality from each person, because people are different from each other. They differ from each other to a certain extent in terms of their abilities. information about the differences between them in terms of quality and quantity is given.

### **Tayanch iboralar.**

*Geniallik, iste'dod, layoqat, intellekt, sport qobiliyatları, talent.*

Psixologiyada qobiliyat individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan hislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir

xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyati bo'yicha bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. Binobarin, ular o'rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlar ko'p bo'lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, oson, puxta foydalana olishini namoyon qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo'llar orqali erishishga imkon beruvchi «o'zgaruvchan miqdor» majmui tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual-psixologik hislatlari (fazilatlari)ning murakkab majmuasi ko'rinishida gavdalanadi. Hayotda ko'zi ojiz musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari ko'p uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yo'qligi ham kasbiy-musiqaviy qobiliyatning rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordamida o'stirish, ya'ni kompleksatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinchi yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyoqi) sohasida mislsiz keng ko'lAMDAGI imkoniyatlarni ochadi. Qobiliyatli shaxslar ijtimoiy turmushning turli jabhalarida o'z o'rnini topa oladi hamda yuksak yutuqlarga erishadi, hatto bir necha faoliyat turida muvaffaqiyat qozonishi ham mumkin.

Psixologiyada qobiliyatni miqdor jihatdan o'lhash muammosi o'ziga xos tarixga ega. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termin va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni taklif qilib chiqdilar.<sup>19</sup> Bu bilan shaxsning mansabdorlik darajasida tutgan o'rni va uning u yoki bu mehnat faoliyatida, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishida, ishlab chiqarishda, harbiy xizmatda va ijtimoiy hayotda rahbarlik lavozimini egallashiga layoqatini aniqlash taxmin qilingan edi. Biroq qobiliyatni miqdor jihatdan baholash muammosi jamiyatda paydo bo'lish davridan e'tiboran ikki xil xususiyat kasb etadi. Bir tomonidan, u mehnatkash kishining aniq imkoniyatlarini obyektiv ravishda aniqlashga imkon beradi. Bu

<sup>19</sup> Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; O'qituvchi. 1992

siz amalda kasb tanlashga yo'llash uchun layoqatli kishini topish va tanlash qiyin bo'lar edi.

Mehnat faoliyatida inson omili (ya'ni inson va uning qobiliyati) e'tiborga olinmaydigan oldingi davrga nisbatan qobiliyatlar psixologiyada miqdoriy tadqiqotlar g'oyasining ilg'orligi ana shundadir. Kishi egallagan faoliyat (mehnat, o'qish, sport va shu kabi)lar uning psixologik fazilatlari (aqliy xususiyatlari, emotsional irodaviy sohalari, sensomotorikasi)ga yuksak talablar qo'yadi. Qobiliyat murakkab tizimga ega bo'lgan psixik fazilatlari yig'indisidan iboratdir. Uning sifati namoyon bo'ladigan fazilatlari yig'indisining tuzilishi pirovard natijada aniq faoliyat talablari bilan belgilanadi va har xil turlari uchun turlicha bo'ladi. Shaxsning muhim individual sifati hisoblanuvchi qobiliyat shaxsning boshqa individual sifatlari bilan bog'liq holda xilma-xil bo'ladi. Psixologik nuqtai-nazar bilan qobiliyatlilik sifat jihatidan malakalardan ajralib turadi. Qobiliyat orqali odamlar o'yinda, o'qishda, mehnatda ham bir-birlaridan keskin farq qiladilar. Kishining qobiliyati xilma-xil bo'lib, qiziqishlar va o'z ustida ishslash natijasida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Faoliyatning mohiyatidan kelib chiqib, qobiliyat ham turlicha kasb egalarida turlicha namoyon bo'ladi, ayrim shaxslar bir necha sohalarga nisbatan ham qobiliyatli bo'ladilar. Qobiliyatlar to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirish maqsadga muvofiq: qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlar ekanligi; mazkur xususiyatga bilim, ko'nikma, malaka orttirish bilan erishilishini bog'lash muhimdir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha «o'rtamiyona» bo'lgan talaba keyinchalik ijobjiy tomonga o'zgarishi, boshqa soha (tarmoq)da yuksak natjalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda o'zini ko'rsatishi mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda uquvsiz, «yaroqsiz» deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning yetakchi mutaxassis sifatida elga tanilishi, yuqori lavozim egallashi shaxs sifatida kamol topish hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Masalan, talabaning o'qishga kirishi u mutaxassis sifatida kasbiy kamolot uchun imkoniyat tarzida gavdalanishi kabi (uning intilishi, obyektiv va subyektiv muhit, salomatligi va boshqalar), shaxsning qobiliyatları kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallah uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallandimi yoki yo'qmi, imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi-bularning barchasi ko'pgina omil va sharoitlarga bog'liqidir. Masalan, atrof-muhitdagi odamlar (oila, mакtab, mehnat

jamoasi a'zolari, jamoatchilik) shaxsning u yoki bu bilim hamda ko'nikmalarni egallashiga manfaatdorlik, o'qish, o'rgatishga munosabati, ularni tashkil qilish va mustahkamlashga nisbatan mas'uliyat his qilish kabilarning barchasi imkoniyatni ro'yobga chiqarishning, uni voqelikka aylantirishning kafolatidir. Psixologiyaning metodologik asosining ko'rsatishicha, qobiliyat imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatdagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Insonda namoyon bo'layotgan tasviriy san'at qobiliyati uning rassom sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. Rassomlikni egallashi uchun maxsus ta'lim berilishi, tabiatga o'zgacha munosabati, idrok qilish xayoloti, shaxsiy fazilati, salomatligi, matolar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, moslama asboblar va boshqa vositalar muhayyo bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlarsiz tasviriy san'at qobiliyatları taraqqiy etmay turiboq, so'na borishi mumkin. Insonda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, ularning barqarorligi, shakllangan shaxsiy ish uslublari mavjud emasligiga asoslanib, ularni jiddiy tekshirib, tashxis qilmasdan turib, shoshilinch tarzda unda qobiliyatlar yo'q, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatları tufayli jahonda munosib shon-shuhurat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishida genial olim bo'lib voyaga yetishish dalolatnomasi yo'q edi.<sup>20</sup> Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyat to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatiga qobiliyat deyiladi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar, ya'ni bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi. Psixologiya metodologik asosining ko'rsatishicha, qobiliyat imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatdagi zaruriy mahorat darajasi hisoblanadi.

Psixologiya fani qobiliyat bilan faoliyatning muhim jahhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan,

<sup>20</sup> Karimova V.M. Psixologiya. T- Abdulla Qodiriy. 2002

ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyat faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar, mulohaza yuritish imkonini beradi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq: shaxsning muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa, psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir.

Qobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi. Odamlarning o'q'uv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zini aqlli bo'lishini xohlaydi, «Men aqliman» demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterlik, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan «o'ta aqlli» yoki «o'ta nodon» iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonching o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan emish» degan iboralar aslida «aqlilik» kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi. Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalananadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalananadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan

bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potentsialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potentsial esa bir tomonidan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomonidan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarini oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XXI asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmoqda, jahon tillaridan bir nechta bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni yechishni xohlaydi. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
2. Karimova V.M. Psixologiya. T-Abdulla Qodiriy.2002
3. Психология и педагогика. Под редакцией А.А.Радугина. Изд. "Центр" 2003
4. "Психология" Уч.Т-2. "Проспект". Москва - 2004.
5. Гамильтон. Я.С. "Что такое психология". "Питер", 2002.

6. Ананьев Б.Г. "Человек как предмет познания". "Питер", 2001.
7. Дружинина В. "Психология ". Учебник. "Питер", 2003.
8. Бурлачук Ф. Психодиагностика. "Питер", 2002.
9. Айзенк М. Психология для начинающих. "Питер", 2000.
10. Болотова А.К. Макарова И.В. Прикладная психология: Учебник для вузов.- М.Аспект Пресс, 2002 – 383 с.